O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XORAZM VILOYATI XALQ DEPUTATLARI HAZORASP TUMANI KENGASHI

QARORI

220700, Hazorasptumani, E.Gayazovko‘chasi, 32-uy, telefon: (62)33-25-579;faks: (62)33-25-579

2023 - yil 7 - yanvar VI-103-1-12-174-K/23 Hazorasp tuman hokimligi

Hazorasp tumanining 2023-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2022-yil 30 dekabrdagi O‘RQ 813-son Qonuniga muvofiq va xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 5 yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23 sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining moliya bosh boshqarmasining 2022-yil 30 dekabrdagi 01-01-33-38//404-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining 2023-yil 5 yanvardagiVI-57-1-12-0-K/23 sonli “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Xalq deputatlari Xorazm viloyat kengashining VI-57-1-12-0-K/23 sonli “2023 yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga (keyingi o‘rinlarda Qaror deb ataladi) muvofiq, Hazorasp tuman mahalliy byudjetining 2023 yil uchun daromadlari 115382,7 mln.so‘m, xarajatlari 200028,1 mln.so‘m prognoz qilinganligi hamda respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar 84645,4 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2023-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi

1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4.2023-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.2023-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.2023-yil uchun Hazoarsp tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 4-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7.2023-yil uchun viloyat byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8.2023-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 884,2 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

9. 2023-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

11.Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan erlardan tashqari) er maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 8-ilovaga muvofiq belgilansin.

12.Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha 2023-yil uchun belgilangan minimal miqdori 9-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

13.O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023 yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy byudjet xarajatlarini hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, xalq deputatlari Xorazm viloyat Kengashining 2023-yil 5 yanvardagi “2023-yil uchun Xorazm viloyati mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-57-1-12-0-K/23–sonli qaroriga muvofiq 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) mahalliy byudjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

Mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq.

b) 3-ilovaga muvofiq quyidagi soliq turlari viloyat va tuman byudjeti o‘rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i.

14.Hazorasp tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Ruzimov), Moliya bo‘limi (Sh.Xo‘janiyozov), Davlat soliq inspeksiyasi (D.Matyaqubov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;.

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

15.Davlat soliq inspeksiyasi (D.Matyaqubov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirishga;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rishga;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazishga;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

16.Davlat soliq inspeksiyasi (D.Matyaqubov), Kadastr agentligi Hazorasp tuman bo‘limi (X.Sadullaev) 2023-yildan boshlab yuridik shaxslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

17.Davlat soliq inspeksiyasi (D.Matyaqubov), tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

18.Majburiy ijro byurosi Hazorasp tuman bo‘limi, Davlat soliq inspeksiyasi (D.Matyaqubov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

19.Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (M.Eshchanov) jismoniy shaxslarning er va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

20.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Ruzimov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini «e-ijro auksion» mayonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

21.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Ruzimov) tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan birgalikda tashqi reklama ob’ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni byudjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

22.Irrigatsiya tizimi bo‘limi (S.Matqurbanov) va tuman soliq inspeksiyasi (D.Matyaqubov) tuman hokimining qishloq va suv masalalari bo‘yicha o‘rinbosari bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy byudjetlarga to‘liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

23.Hazorasp tuman moliya bo‘limi (Sh.Xo‘janiyozov):

byudjet intizomiga qat’iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlari kuchaytirsin;

byudjet intizomini buzish holatlari bo‘yicha har oy yakuni bilan Kengashga axborot kiritib borsin;

o‘tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo‘yicha kamomad va noqonuniy

o‘zlashtirishga yo‘l qo‘ygan soha rahbarlarining hisoboti xar chorakda eshitib borilsin.

24.Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

25.Hazorasp tuman hokimligi:

Tuman mahalliy byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, tuman hokimligining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari, Hazorasp tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

26.Hazorasp tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Ruzimov), tegishli muassasa

va tashkilotlar bilan birgalikda:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

27.Tuman hokimligi Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

28.Mazkur qaror “Hazoraspnoma” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda Hazorasp tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

29.Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

30.Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.v.b. **Nurullayevich R. J.**

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
1-ilova

2023-Yil uchun Hazorasp tumani bo‘yicha

mahalliy byudjet daromadlarining reja ko‘rsatkichlari

Daromad turlari		**ming. so‘m**
1	Aylanmadan olinadigan soliq	8 816 000
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	27 091 500
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 986 000
4	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	11 426 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 458 000
7	Yuridik shaxslarning er soliq	9 012 000
8	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 236 000
9	Jismoniy shaxslarning er soliq	10 908 000
10	Qurilish materiallari bo‘yicha er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	100 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 518 000
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	373 000
Jami		**82 924 500**
	Mobil aloqa xizmati, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromadlar	**32 458 247**
1	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	13 131 024
2	Mobil aloqa xizmati	5 632 446
3	Tamaki mahsulotlari	13 694 777
Jami daromad		**115 382 747**

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
2-ilova

Hazorasp tuman mahalliy byudjetining 2023-yilgi asosiy xarajat ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

Ko‘rsatkichlar		Miqdori
Xarajatlar-jami		**200 028 134**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab quvvatlashga xarajatlar-jami**	**151 366 858**
	shu jumladan:	
1.1	Maorif	21 966 847
	- maktabgacha ta’lim	12 527 502
	- umumiy ta’lim	9 439 345
1.2	Sog‘liqni saqlash	76 441 636
1.3	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	-
1.4	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	5 544 160
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 676 849
	- sport	3 867 311
1.5	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	47 205 280
1.6	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	27 600
1.7	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	181 335
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**15 447 001**
2.1	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazlari	431 676

2.2	Obodonlashtirish	8 055 833
2.3	Suv xo‘jaligi vazirligi tashkilotlari	1 105 787
2.4	Veterinariya qo‘mitasi	1 456 603
2.5	Mahalliy byudjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 397 102
2.6	Ichki xo‘jalik avtomabil yo‘llarni ta’mirlashxarajatlari	3 000 000
4.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**17 895 118**
4.1	Davlat boshqaruv idoralari	17 895 118
5.	**Fuqarolarning o‘zini boshqarish organlarni saqlash**	**3 719 199**
6.	**Zahira jag‘armasi**	**1 884 282**
7.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**9 715 676**

Xalq deputatlari Hazorasp tuman Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno	Davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar
1	Xazorasp tumani	100	50	100	100	100	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
4-ilova

Mahalliy byudjetlarning 2023-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**115 382 747,0**	**200 028 134,0**
Hazorasp tumani	115 382 747,0	200 028 134,0

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
5-ilova

Hazorasp tuman mahalliy byudjetlarining 2023-yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	tartibga soluvchi transfert miqdori
JAMI		**84 645 387,0**
	shundan	
1	Hazorasp tumani	84 645 387,0

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
6-ilova

Hazorasp tuman mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	Shahar va tumanlar	Miqdor
Jami		**856 000,0**
1	Hazorasp tumani	856 000,0

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
7-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdorga 1 gektarga belgilangan bazaviy soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining qaroriga asosan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun 1 (bir) gektar uchun so‘mda
1	Amudaryo MFY	30080000	0,76	22860800
2	Yangibozor MFY	30080000	0,76	22860800
3	Qirtepa MFY	30080000	0,76	22860800
4	Juvarxos MFY	30080000	0,76	22860800
5	Aloqali ko‘l MFY	30080000	0,76	22860800
6	Shovot MFY	30080000	0,76	22860800
7	Yuqori shovot MFY	30080000	0,76	22860800
8	G‘.G‘ulom MFY	30080000	0,76	22860800
9	Karvak MFY	30080000	0,76	22860800
10	Buyuk Ajdodlar MFY	30080000	0,76	22860800
11	Yangi-obod MFY	30080000	0,76	22860800
12	Kamolat MFY	30080000	0,76	22860800
13	Ovshar MFY	30080000	0,76	22860800
14	Oq maydon MFY	30080000	0,76	22860800
15	Istiqlol MFY	30080000	0,76	22860800
16	Muxomon MFY	30080000	0,76	22860800
17	Shoduxurram MFY	30080000	0,76	22860800
18	Shukurona MFY	30080000	0,94	28275200
19	Yangi xayot MFY	30080000	0,76	22860800
20	Buyuk simo MFY	30080000	0,76	22860800
21	Navro‘z MFY	30080000	0,76	22860800
22	Bog‘irog‘lar MFY	30080000	0,76	22860800
23	Beshta MFY	30080000	0,76	22860800
24	Bog‘i eram MFY	30080000	0,76	22860800

25	Bo‘ston MFY	30080000	0,76	22860800
26	Qovunchi MFY	30080000	0,76	22860800
27	Otaliq MFY	30080000	0,76	22860800
28	Zexnli MFY	30080000	0,94	28275200
29	Mustaqillik MFY	30080000	0,76	22860800
30	Bog‘dor MFY	30080000	0,76	22860800
31	Shirin kuduk MFY	30080000	0,76	22860800
32	Sanoat MFY	30080000	0,76	22860800
33	Temirchi maskan MFY	30080000	0,76	22860800
34	Gulzor MFY	30080000	0,76	22860800
35	Munis xorazmiy MFY	30080000	0,76	22860800
36	Pichoqchi MFY	30080000	0,76	22860800
37	Ziyolilar MFY	30080000	0,76	22860800
38	Ming otliklar MFY	30080000	0,76	22860800
39	Sulaymon qal’asi MFY	30080000	0,94	28275200
40	Oybek MFY	30080000	0,94	28275200
41	Jaloliddin Manguberdi MFY	30080000	0,94	28275200
42	Al-Xorazmiy MFY	30080000	0,94	28275200
43	Ishchilar MFY	30080000	0,94	28275200
44	Paxlovon maxmud MFY	30080000	0,94	28275200
45	Taraqqiyot MFY	30080000	0,76	22860800
46	Barkamol avlod MFY	30080000	0,76	22860800
47	Obod zamin MFY	30080000	0,76	22860800

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) yer maydonlari uchun hududlar kesimida mutlaq miqdoriga 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining qaroriga asosan stavkasi	Koeffitsient (0,7 dan 3,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2023 yil uchun 1 (bir) kv.m uchun so‘mda
1	Amudaryo MFY	268,8	0,92	247,33
2	Yangibozor MFY	268,8	0,92	247,33
3	Qirtepa MFY	268,8	0,92	247,33
4	Juvarxos MFY	268,8	0,92	247,33
5	Aloqali ko‘l MFY	268,8	0,92	247,33
6	Shovot MFY	268,8	0,92	247,33
7	Yuqori shovot MFY	268,8	0,92	247,33
8	G‘.G‘ulom MFY	268,8	0,92	247,33
9	Karvak MFY	268,8	0,92	247,33
10	Buyuk Ajdodlar MFY	268,8	0,92	247,33
11	Yangi-obod MFY	268,8	0,92	247,33
12	Kamolat MFY	268,8	0,92	247,33
13	Ovshar MFY	268,8	0,92	247,33
14	Oq maydon MFY	268,8	0,92	247,33
15	Istiqlol MFY	268,8	0,92	247,33
16	Muxomon MFY	268,8	0,92	247,33
17	Shoduxurram MFY	268,8	0,92	247,33

18	Shukurona MFY	268,8	1,01	271,53
19	Yangi xayot MFY	268,8	0,92	247,33
20	Buyuk simo MFY	268,8	0,92	247,33
21	Navro‘z MFY	268,8	0,92	247,33
22	Bog‘irog‘lar MFY	268,8	0,92	247,33
23	Beshta MFY	268,8	0,92	247,33
24	Bog‘i eram MFY	268,8	0,92	247,33
25	Bo‘ston MFY	268,8	0,92	247,33
26	Qovunchi MFY	268,8	0,92	247,33
27	Otaliq MFY	268,8	0,92	247,33
28	Zexnli MFY	268,8	1,01	271,53
29	Mustaqillik MFY	268,8	0,92	247,33
30	Bog‘dor MFY	268,8	0,92	247,33
31	Shirin kuduk MFY	268,8	0,92	247,33
32	Sanoat MFY	268,8	0,92	247,33
33	Temirchi maskan MFY	268,8	0,92	247,33
34	Gulzor MFY	268,8	0,92	247,33
35	Munis xorazmiy MFY	268,8	0,92	247,33
36	Pichoqchi MFY	268,8	0,92	247,33
37	Ziyolilar MFY	268,8	0,92	247,33
38	Ming otliklar MFY	268,8	0,92	247,33
39	Sulaymon qal’asi MFY	268,8	1,01	271,53
40	Oybek MFY	268,8	1,01	271,53
41	Jaloliddin Manguberdi MFY	268,8	1,01	271,53
42	Al-Xorazmiy MFY	268,8	1,01	271,53
43	Ishchilar MFY	268,8	1,01	271,53

44	Paxlovon maxmud MFY	268,8	1,01	271,53
45	Taraqqiyot MFY	268,8	0,92	247,33
46	Barkamol avlod MFY	268,8	0,92	247,33
47	Obod zamin MFY	268,8	0,92	247,33

Xalq deputatlari Hazorasp tuman
Kengashining
2023 yil 7 yanvardagi
VI-103-1-12-174-K/23-son qaroriga
9-ilova

Hazorasp tumanida 2023-yil uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig‘i stavkalari

T/R	Tumanlar nomi	Soliq kodeksiga asosan mulk qiymatining mutlaq miqdori *(SK 412-modda)*	Koeffitsient *(1,0 dan 0,5 gacha)*	2023 yil uchun Yuridik shaxslar mol-mulkining minimal qiymatlari *(1 kv.metr uchun ming so‘mda)*
1	Hazorasp tumani	1 000,0	0,90	900,0